

YOSHLARNI MAFKURAVIY TARBIYALASHDA TANQIDIY FIKRRLASHNING O'RNI

F.O.Xodjiyeva

Dots., p.f.n. NavDPI.

G. H.Ravshanova

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabasi

Mazkur maqola: *o'quvchi-yoshlarni mafkuraviy tarbiyasida tanqidiy fikrlash va uning elementlarining o'ziga xos o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlar va mulohazalarga bag'ishlangan. Unda tanqidiy fikrlashning asosiy yo'llari ham yoritilgan.*

Tayanch so'z va iboralar: *mafкура, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy tarbiya, tanqidiy fikrlash, o'quvchi yoshlar, ta'lim muassasalari, ta'lim jarayoni, mustaqillik.*

This article *is devoted to critical thinking and the role of its elements in the ideological education of students. It also outlines the basic elements of critical thinking.*

Key words: *ideology, ideological immunity, ideological education, critical thinking, students and students, educational institution, educational process, independence.*

Эта статья посвящена о критическом мышлении и роли его элементов в идеологическом воспитании учащихся и студентов в непрерывном образовании. В нем также излагаются основные элементы критического мышления.

Ключевые слова: *идеологияб идеологический иммунитетб идеологическое образованиеб критическое мышлениеб учащихся и студентыб образовательные учреждениеб образовательный процессб независимость.*

Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri XXI asr boshlarida butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratib berdi.

Fan va texnikaning ilg'or yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet tizimi turli davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi chegaralarni ochib berib, o'zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga so'zsiz katta hissa qo'shayotganiga bugun barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. Lekin insoniyat tafakkurining yuksak va yorqin namoyoni bo'lgan bunday

yutuqlar ayni paytda ayrim siyosiy kuchlarning g'arazli niyatlarini amalga oshirishda mafkuraviy qurol sifatida ishlatilayotganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Mafkuraviy ta'sir va tahdidlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash baholash, xususiyatlari va mafkuraviy immunitetini hosil qiishning ta'sirchan hamda samarali usul va vositalarni yaqqol ko'rsatish lozimdir. Birinchi prezidentimiz I.Karimov tomonidan ilmiy muomilaga bir qator tushunchalar kiritilganini qayd etish lozimki, ular qatorida "mafkuraviy immunitet", "mafkuraviy profilaktika" kabi tushunchalar bor. Ana shu tushunchalarning mazmunini oydinlashtirishda hozirgi dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolroq tasavvur qilish imkoni tug'iladi.

Nima uchun kishilar ongi va qalbi uchun kurash turli mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? Gap shundaki, muayyan g'oya tom ma'noda g'oya bo'lishi uchun kishilar ongini egallashi, ularning qalbidan joy olishi shart. G'oya faqatgina inson qalbini egallagandagina, inson ma'naviy-ruhiy holatining uzviy qismiga aylanganidagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda hafaqat inson ongini, balki qalbini egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda.

Insonlarning birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini, ma'naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urunishlarning asl mohiyatini, ularning uzoq va davomli, salbiy oqibatlarini anglash va bunday xavf-xatarlarning oldini olish bugungi kunda o'ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Tinch totuv hayotimizga chang soluvchilar hali dunyoqarashi to'liq shakllanmagan yoshlarimizni talagan yo'lidan og'dirishga, ularning qalbiga biz uchun mutlaqo begona va zararli bolgan qarashlarni singdirib, ular ongini zaharlashga urunishmoqda. Tabobatda kasalni davolashdan ko'ra, uni oldini olish oson bo'lganidek, tarbiyada ham tarbiyasi buzilgan, fikri chalg'gan yoshlarni to'g'ri yo'lga qaytarishdan ko'ra, ularni bu illatga chalinmaslikka erishish yaxshiroq. Bu maqsadga esa ta'lim va tarbiya natijasida tanqidiy tafakkurga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash orqali erishish mumkin.

Chunki, tanqidiy fikrlash – ongli mustaqil, tahliliy fikrlash jarayoni bo'lib, bunda o'quvchi o'ziga taklif etilgan yoki to'qnash kelgan axborotlarga o'z nuqtai nazari bilan qayta tahliliy yondashadi. Tanqidiy fikrlash — bu odamlardan fikr yuritishni va ularning e'tiqodlari va harakatlarini boshqaradigan qarorlar qabul qilishga e'tibor berishni talab qiladigan fikrlash usuli. Tanqidiy fikrlash odamni mantiqiy xulosalar chiqarishga, murakkab ma'lumotlarni qayta ishlashga, narsalarga turli tomonlardan qarashga

o'rgatadi, shuning uchun ular ishonchliroq xulosalar chiqarishi mumkin. Demak, biz maqsad qoyishimiz kerakki ta'lim-tarbiya jarayonida tanqidiy tafakkur sohiblarini jamiyatga tarbiyalab yetkazish.

Mazkur maqsadni ta'minlash uchun, pedagoglar quyidagi vazifani bajarish nazarda tutiladi:

- milliy g'oya, umummilliy qadriyatlarga oid tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish;

- ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borish;

- yoshlarni nafaqat bilimli, balki, ma'naviy axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish bo'yicha ta'sirchan pedagogic choralarni belgilash;

- yoshlarni diniy-ekstremistik g'oyalar, turli axborot xurujlari ta'siridan himoya qilish yo'llarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;

- yoshlarni dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil, ijodiy, mantiqiy, konstruktiv mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali tanqidiy fikrlashiga erishish;

- yoshlarda sog'lom turmush tarzi hamda faol hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish;

- o'quvchi shaxsini rivojlanishiga sharoit yaratish. Shuningdek, o'quvchilar:

- turli fikr va g'oyalarni e'tibor bilan tinglash;

- o'ziga ishonchni orttirish;

- o'z hukmlarini shakllantirishga va undan qaytishga tayyor turish;

- o'z nuqtai nazarlarini ishlab chiqish va isbotlay olish;

- voqelikni, jarayonlarni, obyektiv baholay olishni;

- fikrini erkin bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Tanqidiy fikrlash jarayonida o'quvchilar axborotlarni tezkorlik bilan qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, turli nuqtai nazarlar orqali umumlashtirish, xulosalash shuningdek, fikr yuritishga, o'z g'oyalari va fikrlari bilan o'zaro o'rtoqlashishga da'vat etish kabi pedagogik yondashuv ularning faolligini o'stiradi.

Bola o'n yoshga to'lgunga qadar, unda tanqidiy fikrlash elementlari shakllana boshlaydi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'qituvchilar ularga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini izchil shakllantirib borishlari kerak. O'quvchini murakkab vaziyatlardan chiqish, o'z fikrini bayon qilishdan qo'rqmaslikka o'rgatib borish lozim. Dastlabki to'siqlardan o'ta olmaslik, sinovlardan cho'chish, bunday vaziyatdan tushkunlikka tushish holatlarini o'qituvchi o'z vaqtida bartaraf etish kerak. O'quvchilarga muayyan vaziyatlarda yaxshi va yomon holatlarni farqlay olish ko'nikmasini tarkib toptirish ham tanqidiy fikrlashning asosiy elementlaridan biridir.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasi mutasaddilari zimmasiga yuklanayotgan ma'suliyatli vazifaning zalvori ayni shu jihat bilan o'lchanadi. Bir kun kech ekilgan daraxt bir hafta kech meva tugadi deganlaridek, tarbiya sohasida bir kunga bo'lsin kech qolish ham, ma'lum muommolarga sabab bo'ladi. Shu boisdan davlatimiz rahbari ma'naviy-ma'rifiy tarbiya sohasi mutasaddilariga, ayniqsa, pedagoglarga katta ishonch bildirib, kelajagimiz ertangi kunimiz bilan bog'liq xavfdan barchamizni qayta-qayta ogoh qilmoqda.

Tanqidiy fikrlash amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o'rganilgan o'quv mavzusi bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, muommolarni tahlil qilish va qirralarini yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko'nikmalarini egallashga, ijodiy va o'rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o'z-o'zini nazorat qilishga yordam beradi.

Bugungi kunga kelib shaxsning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga XXI asrda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohada sodir bo'layotgan holatlarni yanada chuqurroq anglashga yordam beruvchi ko'nikma sifatida qaralmoqda. Birinchi prezidentimiz I.Karimov "Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish" asarida: " ... mafkuraviy kurash tobora keskinlashib borayotgan bugungi zamonda shunday ustasi faranglar borki, ular har qanday yolg'onni ham haqiqat deb shunday boplab tushuntirib qo'yadiki, ba'zan qip-qizil uydirmalarga qanday ishonganingizni bilmay qolasiz" {1}-deb ta'kidlagan edilar.

Bugungi kunda insonlarning, birinchi navbatda yoshlarning ongu tafakkurini, ma'naviy olamini izdan chiqarishga qaratilgan bunday urinishlarga faqat tanqidiy tafakkur yurita oladigan insonlarga o'zini va jamiyat hayotidagi turli xavf-xatarlarning oldini olishga qodir bo'ladi.

Shunday qilib tanqidiy fikrlash bugungi kunning dolzarb mavzusi bo'lib, o'nib-o'sib kelayotgan yosh avlodning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga hamda yoshlarimizda bunyodkor g'oyalarni vayronkor g'oyalardan farqlay olish imkoniyati yuzaga keladi. Yoshlarimizni tanqidiy tafakkur bilan qurollantirishimiz ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqod sohiblari bo'lishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Karimov "Eng asosiy mezon- hayot haqiqatini aks ettirish"-T., "O'zbekiston", 2009 y. 10-bet.

2. Ziyomuhammadov B va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. _T., "O'zbekiston milliy ensiklopidiyasi".T.,2000
3. Imomnazarov.M., EshmammedovaM. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. -T.,Toshkent Islom universiteti 2001 y.
4. F.O.Xodjiyeva. O`quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish. T.: "Fan" 2009 y
5. Otamurodov.S va boshqalar. Ma'naviyat asoslari.-T.,2000 y.
6. Otamurodov.S Mamashokirov.S Xolbekov.A Markaziy osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. -T,: yangi asr avlodi, 2001.336bet.